

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI**

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI**

“TASDIQLAYMAN”

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya
pedagogikasi milliy instituti direktori,
akademik



X.I.Ibraimov

2026-yil

**13.00.02 – TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI
IXTISOSLIGI BO’YICHA
TAYANCH DOKTORANTURAGA
KIRISH IMTIHONI**

DASTURI

Toshkent–2026

ANNOTATSIYA

Mazkur dastur 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo’yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoniga tayyorgarlik ko’rish uchun mo’ljallangan. Dastur talabgorning ta’lim va tarbiya metodologiyasi, “Tarbiya” fanini o’qitish metodikasi, milliy tarbiya, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, tadqiqot metodlari hamda 2026-yil holatidagi ta’lim siyosatiga oid bilimlarini baholashni nazarda tutadi.

Dastur yangi tahrirdagi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O’zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O’RQ–637-son “Ta’lim to’g’risida”gi va 2024-yil 1-fevraldagi O’RQ–901-son “Pedagogning maqomi to’g’risida”gi qonunlari, Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son, 2022-yil 11-maydagi PF–134-son farmonlari, 2024-yil 21-iyundagi PQ–231-son va PQ–232-son qarorlarida belgilangan vazifalarga asoslanadi. Institut missiyasidan kelib chiqib, milliy tarbiya modeli, “Tarbiya” fanini o’qitish metodikasi, pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi va ijtimoiy-emotsional ta’lim masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” ixtisosligi bo’yicha kirish imtihonining maqsadi – talabgorning nazariy-metodik tayyorgarligi, ilmiy dunyoqarashi, zamonaviy pedagogik tadqiqot metodlarini qo’llash, milliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish, ta’lim-tarbiya muammolariga ilmiy asoslangan yechim taklif etish hamda akademik manbalar bilan ishlash kompetensiyalarini aniqlashdir.

Dastur O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF–51-son, 2025-yil 28-apreldagi PF–73-son va 2025-yil 5-maydagi PF–76-son farmonlarida belgilangan maktab ta’limini boshqarish, pedagog kadrlar tayyorlash va ta’lim sifatini ta’minlashga doir ustuvor vazifalar asosida yangilandi.

Shuningdek, 2025-yil 24-dekabrdagi PF–256-son Farmon, Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-yanvardagi 34-son qarori, Prezidentning 2026-yil 5-fevraldagi PF–19-son, 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son va PF–22-son, 2026-yil 10-apreldagi PF–58-son hamda 2026-yil 26-maydagi PF–98-son farmonlaridagi milliy tarbiya, xavfsiz ta’lim muhiti, ta’lim sifati, ilmiy kadrlar tayyorlash va attestatsiya tizimiga oid talablar dastur mazmuniga singdirildi.

Eslatma. PF–98-son Farmonga ko’ra, 2026-yil 1-sentabrdan ustuvor ilmiy ixtisosliklarga qabul kirish imtihoni o’rniga ilmiy tadqiqot ishi taqdimoti asosida amalga oshiriladi. Mazkur tartibning 13.00.02 ixtisosligiga tatbiqi vakolatli vazir tasdiqlaydigan ustuvor ilmiy ixtisosliklar ro’yxati asosida aniqlanadi.

Tuzuvchi:

Qori Niyoziy nomidagi TPMI “Milliy tarbiya, mutafakkirlar va jadidlarning pedagogik ta’limotlari” bo’limi mudiri
p.f.d., prof. R.Safarova

Taqrizchi:

p.f.d., prof. X.M.Tojiboyeva

Ushbu dastur Institut Kengashining 2026-yil 28-avgustdagi 7-sonli yig’ilishida tasdiqlangan.

SO‘Z BOSHI

Bugungi kunda “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi”ni rivojlantirish, tarbiyaviy ishlar metodikasi bo‘yicha mutaxassislarda innovatsion va tadqiqotchilik tafakkurini shakllantirish zarur. Mazkur ixtisoslik talabgori ilmiy-pedagogik faoliyat uchun zarur nazariy bilimlar, metodik ko‘nikmalar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan pedagogik yondashuvlar hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini egallagan bo‘lishi lozim.

Ushbu dastur “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” ixtisosligi bo‘yicha talabgorning umummetodik bilim darajasini aniqlaydi. Mazkur dastur talabgorlarga metodika fanining rivojlanish jarayoni, tendensiyalarini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bog‘liq holda aniq tasavvur qilish imkonini beradi. Bunda talabgorning metodika fanining o‘ziga xos jihatlari, boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligini ta’minlovchi prinsiplarni o‘zlashtirilganlik darajasiga e’tibor qaratiladi. Ta’lim-tarbiya amaliyoti, unda erishilgan yutuqlar, istiqbolda amalga oshiriladigan ishlarning talabgor tomonidan qay darajada idrok etilganligini aniqlash nazarda tutiladi. Dasturda metodika fanining vujudga kelishi ta’lim-tarbiya taraqqiyoti bilan uzviylikda talqin qilingan. Tarbiyaviy ishlar metodikasi sohasidagi ilg‘or tajribalar, uning tarixiy taraqqiyotini tahlil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lish talabgorlardan qat’iy talab qilinadi.

“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” ixtisosligining maqsad va vazifalari:

- talabgorlarning ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi bo‘yicha o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma, malakalari va fan asoslaridan xabardorlik darajalarini aniqlash;

- ta’lim-tarbiyani isloh qilish jarayonida uning samaradorligini oshirish uchun talabgorlarda zarur metodik ko‘nikmalarni hosil qilish;

- talabgorda metodikaga oid bilimlarning qay darajada rivojlanganligini aniqlash;

- talabgorlarning metodikaga oid mahoratini aniqlash;

- metodikaning qonuniyatlari, prinsiplari va rivojlanish tendensiyalariga mos tarzda innovatsion yondashuvlarni tahlil qilish;

- tarbiyaviy ishlar metodikasiga oid tarixiy-tajribalarning talabgor tomonidan o‘zlashtirilganligini aniqlash;

- tarbiyaviy jarayonlarda qo‘llaniladigan tarbiya texnologiyalarini bilish va ulardan amaliyotda foydalana olishini aniqlashdan iborat.

Tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishga oid bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni o‘zlashtirishga qo‘yiladigan talablar

Talabgorlardan quyidagi metodik tushunchalarni bilish va ko‘nikmalarga ega bo‘lish talab etiladi:

- bo‘ljak o‘qituvchilarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishga nazariy, amaliy va metodik jihatdan tayyorlash;

- metodikani rivojlantirish istiqbolini ko‘zlagan holda maqsad, vazifalarni belgilay olish;

o'quvchi va talabalarga ta'lim-tarbiya berish hamda ularni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish metodlarini bilish;

ta'lim-tarbiyaning samarali vositalari va metodlarini qo'llay olish;

tarbiyaviy jarayonlarni zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etish;

tarbiyaviy jarayondagi pedagogik vaziyatlar, ta'lim-tarbiya natijalarini tahlil eta olish;

o'quvchilar jamoasini o'rganish metodlarini bilish;

o'quvchilardagi sustkashlik, tortinchoqlik sabablarini aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini bilish.

ta'lim-tarbiya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni metodik jihatdan tahlil qilish;

milliy qadriyatlar asosida ijtimoiy-emotsional ta'limni dars, sinfdan tashqari faoliyat va maktabning tarbiyaviy muhitiga integratsiyalash;

xavfsiz, inklyuziv va zo'ravonlikdan xoli ta'lim muhitini yaratish metodlarini qo'llash;

raqamli pedagogika va sun'iy intellekt vositalaridan maqsadga muvofiq, xavfsiz va etik foydalanish;

miqdoriy, sifat va aralash tadqiqot metodlari, akademik yozuv, tadqiqot etikasi hamda ma'lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalanish.

Talabgorlar metodika fanini o'rganish davomida zamonaviy innovatsion tarbiya texnologiyalari, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, metodika sohasidagi amaliy, ilmiy tadqiqot topshiriqlarini bajara olish yo'llarini bilishlari zarur.

Talabgorlar tomonidan "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi" ixtisosligi yo'nalishida o'rganilishi zarur bo'lgan minimum bilimlar mazmuni

1. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosatini ifodalovchi me'yoriy hujjatlar, ularning mazmun-mohiyati haqida.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim-tarbiya sohasidagi siyosatining o'qituvchilarni tayyorlashdagi ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasida pedagoglar tayyorlash tizimining o'ziga xos xususiyatlari.

O'qituvchilarining metodik mahoratni egallash yo'llari.

2. "Ta'lim-tarbiya metodikasi" fan sifatida. "Tarbiyaviy ishlar va "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi"ning predmeti, maqsad va vazifalari. "Metodika" faning tadqiqot metodlari.

Metodika mustaqil fan sifatida. Pedagogikaning ta'lim-tarbiya va pedagogik tadqiqotlar tizimida tutgan o'rni.

Metodikaning asosiy kategoriyalari va tushunchalari.

Metodika fanining tarkibiy tuzilishi, bo'limlari. Metodika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Metodika sohasidagi amaliy tadqiqot metodlari, tajriba-sinov ishlari va ularni amalga oshirish metodikasi.

3. Ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya maqsadi va vazifalari. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi. Ta'lim-tarbiya maqsadlarining turli-tumanligi. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari.

O'quvchilarni maktab hayotiga moslashtirish maqsad, vazifalari va shakllari.

4. Tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish prinsiplari. Tarbiyaviy jarayonlarning mazmuni va mohiyati. Tarbiya jarayonining yaxlit tizim sifatidagi tasnifi.

Tarbiya jarayonida o'zaro aloqa va o'quvchilarning rivojlanishi. Pedagoglarning reproduktiv va ijodiy bilish faoliyati. Tarbiya jarayonini tashkil qilishda o'qituvchilar yo'l qo'yadigan xatolar va ularning oldini olish.

Ta'lim-tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari. Ta'lim-tarbiyaning pedagogik, psixologik va fiziologik asoslari.

5. Tarbiya vositalari, metodlari va texnologiyalari. Tarbiya usullari va metodlari haqida tushuncha. Ta'lim-tarbiyaning turli bosqichlarida tarbiya metodlarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari.

O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanish darajasiga ko'ra tarbiya metodlarini faollashtirish yo'llari.

6. Tarbiya – yagona pedagogik jarayonning asosiy shakli.

Ta'lim oluvchilarni muloqotga o'rgatish shakllari. Ta'lim muassasalarida jamoaviy faoliyatni shakllantirish yo'llari.

Jamoa haqida tushuncha. Sharq mutafakkirlari jamoa va uning shaxsga ta'siri to'g'risida. Jamoaning pedagogik vazifalari. Jamoaning turlari.

Ta'lim muassasalari o'quvchilar jamoasi va uning tuzilishi. Jamoaning tarkib topish mexanizmlari va bosqichlari.

7. Tarbiyaning umumiy metodlari. Tarbiya metodlarining maqsadi, prinsiplari, mazmuni hamda ularning o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, tarbiyalanganlik darajasiga bog'liqligi.

O'zbek xalq pedagogikasida tarbiya metodlari. Bola tarbiyasida ibrat-namuna ko'rsatishning tutgan o'rni.

O'quvchilarda ijtimoiy xulq-atvor tajribasini shakllantirish metodlari. O'quvchilar faoliyatini uyushtirish va ular bilan hamkorlik qilishning mohiyati. O'quvchilar faoliyatida o'yin, o'z-o'zini boshqarish, musobaqa, o'z-o'ziga xizmatning ahamiyati.

8. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini o'qitish pedagogik hodisa sifatida. "Tarbiya" fanining barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati. Barkamol avlod – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. "Tarbiya" fanida barkamol avlod tarbiyasi masalasi va uning tarkibiy qismlari.

9. Tarbiyaning milliy va umumjahon konsepsiyalari. Tarbiyaning milliy, ijtimoiy-tarixiy asosi. O'zbekistonda milliy tarbiya g'oyasining tiklanishi va rivojlanishi. Hozirgi davrda o'zbek maktablarida milliy tarbiyaning mazmuni va uni joriy etishning nazariy-amaliy jihatlarini. O'zbekistonda va xorijiy mamlakatlarda zamonaviy tarbiya konsepsiyalari.

10. Ijtimoiy-ma'naviy hayotni modernizatsiyalash sharoitida "Tarbiya" fani va uning vazifalari. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Tarbiya" fanining nazariy-metodologik asoslari, o'qitish qonuniyatlari va prinsiplari.

11. "Tarbiya" fanining yoshlar tarbiyasi va jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni. Fan mazmunida milliy tarbiya tizimini joriy etish va uning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotdagi ahamiyati.

12. Tarbiya ijtimoiy-tarixiy jarayon sifatida. O'quvchi-yoshlar tarbiyasi muammosining genezisi, tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatlari va prinsiplari.

13. "Tarbiya" fanining mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar. Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv-metodik majmualarga qo'yiladigan zamonaviy talablar.

14. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida "Tarbiya" fanini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari, odob-axloq me'yorlarini shakllantirish, oila-mahalla-maktab hamkorligi.

15. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5–9-sinflarida "Tarbiya" fani mazmuni. Vatanparvarlik, mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik, qat'iyatlilik, mehribonlik va sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi.

16. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10–11-sinflarida "Tarbiya" fani mazmuni. Vatan oldidagi mas'uliyat va burch tuyg'usi, mehnat tarbiyasi hamda kasbga yo'naltirish metodikasi.

17. "Tarbiya" fanini o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida. Professional ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari va ma'naviy-axloqiy tarbiya.

18. "Tarbiya" fanini o'qitishning an'anaviy va noan'anaviy shakllari. Didaktik vositalar, raqamli va kommunikatsiya texnologiyalari, telepedagogika hamda teatr pedagogikasi elementlaridan foydalanish.

19. Milliy tarbiya va ijtimoiy-emotsional ta'lim

Milliy qadriyatlar va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar uyg'unligi. SELni dars, sinfdan tashqari faoliyat va maktabning tarbiyaviy muhitiga tizimli integratsiyalash metodikasi.

20. Xavfsiz va inklyuziv ta'lim muhiti

Bolalarni zo'ravonlik, kamsitish va bullyingdan himoya qilish, ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash, pedagogik profilaktika va maktab-oila-mahalla hamkorligi.

21. Raqamli pedagogika va sun'iy intellekt

"Tarbiya" fanini o'qitishda raqamli didaktika, aralash ta'lim, sun'iy intellekt vositalari, media va axborot savodxonligi, ma'lumotlar xavfsizligi hamda pedagogik etika.

22. Ta'lim natijalarini baholash

Kompetensiyaviy yondashuv, diagnostik, formativ va summativ baholash, mezon va rubrikalar, refleksiya, portfolio hamda tarbiyalanganlik dinamikasini monitoring qilish.

23. Zamonaviy pedagogik tadqiqot metodologiyasi

Dalillarga asoslangan metodika, miqdoriy, sifat va aralash tadqiqot dizaynlari, tajriba-sinov, validlik va ishonchlilik, ma'lumotlarni tahlil qilish, akademik yozuv va tadqiqot etikasi.

**13.00.02 – “TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI”
IXTISOSLIGI BO‘YICHA KIRISH IMTIHONI
SAVOLLARI**

1. O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ta’lim-tarbiya va ilm-fanning ustuvor yo‘nalishlari.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ–637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining mazmun-mohiyati.
3. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF–134-son “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonining mazmun-mohiyati.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son qarorining mohiyati.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-sonli qarorining mazmun, mohiyati.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PQ-4038-son Qarorining mazmun mohiyati.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-sonli qarorining mazmun mohiyati.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3721-son Qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4199-son qarorining mazmun mohiyati.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son qarorining mohiyati.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-fevraldagi “Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga

oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5653-son farmonining mazmun mohiyati.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonining mazmun, mohiyati.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PF-5712-sonli Farmonida umumiy o‘rta ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalar.

15. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi O‘RQ–901-son “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunining mazmun-mohiyati.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ–231-son “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorining mazmun-mohiyati.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ–232-son “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarorining mazmun-mohiyati va Institut oldiga qo‘yilgan ustuvor vazifalar.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF–51-son Farmonida maktabgacha va maktab ta’limini boshqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF–73-son Farmonida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir ustuvor yo‘nalishlar.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF–76-son Farmonida ta’lim sifatini ta’minlash, tashqi baholash va akkreditatsiyaga doir yondashuvlar.

21. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-iyuldagi 423-son qarori bilan tasdiqlangan maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti mazmuni.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-dekabrdagi PF–256-son Farmonida bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish bo‘yicha belgilangan pedagogik vazifalar.

23. Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-yanvardagi 34-son qarori bilan tasdiqlangan yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dasturining mazmun-mohiyati.

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PF–19-son Farmonida maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini takomillashtirishga doir vazifalar.

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son Farmonida 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor islohotlarning ta’lim-tarbiya sohasiga ta’siri.

26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–22-son Farmoni bilan tasdiqlangan davlat dasturida ta’lim va tarbiya sohasiga oid ustuvor vazifalar.

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF–58-son Farmonida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini rivojlantirishning “5T” modeli.

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi PF–98-son Farmonida ilmiy kadrlar tayyorlash, qabul va attestatsiya tizimini takomillashtirishga oid yangiliklar.

29. “Ta’lim-tarbiya metodikasi” fan sifatida.

30. “Tarbiyaviy ishlar va “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi”ning predmeti, maqsad va vazifalari.

31. “Metodika” fanining tadqiqot metodlari.

32. Metodika mustaqil fan sifatida.

33. Pedagogikaning ta’lim-tarbiya va pedagogik tadqiqotlar tizimida tutgan o‘rni.

34. Metodikaning asosiy kategoriyalari va tushunchalari.

35. Metodika fanining tarkibiy tuzilishi, bo‘limlari. Metodika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.

36. Metodika sohasidagi amaliy tadqiqot metodlari, tajriba-sinov ishlari va ularni amalga oshirish metodikasi.

37. Ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya maqsadi va vazifalari.

38. Ta’lim-tarbiya maqsadlarining turli-tumanligi.

39. Xorijiy mamlakatlarda ta’lim konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlari.

40. O‘quvchilarni maktab hayotiga moslashtirish maqsad, vazifalari va shakllari.

41. Tarbiyaviy jarayonlarini tashkil etish va boshqarish prinsiplari.

42. Tarbiyaviy jarayonlarning mazmuni va mohiyati.

43. Tarbiya jarayonining yaxlit tizim sifatidagi tasnifi.

44. Tarbiya jarayonida o‘zaro aloqa va o‘quvchilarning rivojlanishi.

45. O‘quvchilarning reproduktiv va ijodiy bilish faoliyati.

46. Tarbiya jarayonini tashkil qilishda o‘qituvchilar yo‘l qo‘yadigan xatolar va ularning oldini olish.

47. Ta’lim-tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari. Ta’lim-tarbiyaning pedagogik, psixologik va fiziologik asoslari.

48. Tarbiya vositalari, metodlari va texnologiyalari.

49. Tarbiya usullari va metodlari haqida tushuncha.

50. Ta’lim-tarbiyaning turli bosqichlarida tarbiya metodlarini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari.

51. O‘quvchilarning bilish faoliyatiga asoslangan holda ularning rivojlanish darajasiga ko‘ra tarbiya metodlarini faollashtirish yo‘llari.

52. Tarbiya – yagona pedagogik jarayonning asosiy shakli.

53. Ta’lim oluvchilarni muloqotga o‘rgatish shakllari.

54. Ta’lim muassasalari o‘quvchilarida jamoaviy faoliyatni shakllantirish yo‘llari.

55. Jamoa haqida tushuncha. Sharq mutafakkirlari jamoa va uning shaxsga ta’siri to‘g‘risida.

56. Jamoaning pedagogik vazifalari. Jamoaning turlari.

57. Ta'lim muassasalari o'quvchilar jamoasi va uning tuzilishi. Jamoaning tarkib topish mexanizmlari va bosqichlari.

58. Tarbiyaning umumiy metodlari. Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya metodlarining maqsadi, prinsiplari, mazmuni va o'quvchilarning yosh, o'ziga xos xususiyatlariga, tarbiyalanganlik darajasiga bog'liqligi.

59. O'zbek xalq pedagogikasida tarbiya metodlari. Bola tarbiyasida ibratnamuna ko'rsatishning tutgan o'rni.

60. O'quvchilarda ijtimoiy xulq-atvor tajribasini shakllantirish metodlari.

61. O'quvchilar faoliyatini uyushtirish va ular bilan hamkorlik qilishning mohiyati. O'quvchilar faoliyatida o'yin, o'z-o'zini boshqarish, musobaqa, o'z-o'ziga xizmatning ahamiyati.

62. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini o'qitish pedagogik hodisa sifatida.

63. "Tarbiya" fanining barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati.

64. Barkamol avlod yangi O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. "Tarbiya" fanida barkamol avlod tarbiyasi masalasi va barkamol avlod tarbiyasining tarkibiy qismlari.

65. Tarbiyaning milliy va umumjahon konsepsiyalari.

66. Tarbiyaning milliy, ijtimoiy-tarixiy asosi.

67. O'zbekistonda milliy tarbiya g'oyasining tiklanishi va rivojlanishi.

68. Milliy tiklanishdan, milliy yuksalish g'oyasidan "Tarbiya" fanining mazmunida foydalanish.

69. Hozirgi davrda o'zbek maktablarida milliy tarbiyaning mazmuni va uni joriy etishning nazariy-amaliy jihatlar.

70. O'zbekistonda zamonaviy tarbiya konsepsiyalari.

71. Jahon mamlakatlarida tarbiya konsepsiyasi va ularning yo'nalishlari.

72. Tarbiya konsepsiyalarining "Tarbiya" fanini o'qitishdagi ahamiyati.

73. Ijtimoiy-ma'naviy hayotni va ma'rifiy taraqqiyotni modernizatsiyalash sharoitida "Tarbiya fani va uning vazifalari".

74. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Tarbiya" fanining nazariy-metodologik asoslari.

75. Tarbiya fanining ilmiy tadqiqot metodlari

76. "Tarbiya" fanini o'qitish qonuniyatlari va prinsiplari.

77. "Tarbiya" fanining yoshlar tarbiyasi va jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni.

78. "Tarbiya" fani va o'quvchi yoshlar tarbiyasi. Uning mazmuni, zamonaviy tarbiya nazariyasi va amaliyotda ifodalanishi.

79. "Tarbiya" fani mazmunidagi milliy tarbiya tizimini umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy etish.

80. "Tarbiya" fanining ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotdagi o'rni va ahamiyati.

81. Tarbiya ijtimoiy-tarixiy jarayon sifatida.

82. O'quvchi-yoshlar tarbiyasi muammosining genezisi (kelib chiqishi).

83. Tarbiya jarayonining mohiyati.

84. Tarbiya jarayonining qonuniyatlari va prinsiplari.

85. “Tarbiya” fanining mazmunini belgilovchi davlat ta’lim standartlari va boshqa me’yoriy hujjatlar.

86. O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz tarbiya tizimi va “Tarbiya” fani o‘quv dasturining mazmuni.

87. “Tarbiya” fanini o‘qitish dasturlarining yaratilishi va ularga qo‘yiladigan talablar.

88. Zamonaviy “Tarbiya” bo‘yicha o‘quv darsliklari va qo‘llanmalari hamda ularga qo‘yiladigan talablar.

89. “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayoniga zamonaviy yondashuvlar.

90. “Tarbiya” fanini o‘qitishning refleksiv va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalaridan foydalanish.

91. Ishchanlik o‘yini, o‘quv loyihasi, keys-stadi texnologiyalari “tarbiya” fanini o‘qitishning muhim shakllari.

92. “Tarbiya” fanini o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanish.

93. Tarbiya fanini o‘qitish jarayonini loyihalash va rejalashtirish.

94. Tarbiyalash, qayta tarbiyalash va o‘z-o‘zini tarbiyalashda “Tarbiya” fanining imkoniyatlari.

95. “Tarbiya” fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan diagnostik, formativ va summativ baholash vositalari.

96. “Tarbiya” fanini o‘qitishda tarbiya texnologiyalarining roli: insonparvarlik, individual, tabaqalashgan tarbiya texnologiyalari.

97. “Tarbiya” fani o‘qituvchisining innovatsion va tadqiqotchilik faoliyati.

98. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida “Tarbiya” fanini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari.

99. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari va ularda odob-axloq me’yorlarini shakllantirish tizimi.

100. “Tarbiya” fanining tarbiyaviy yo‘nalishlari va ularning bola shaxsini rivojlantirishdagi o‘rni.

101. Bolalarni oila, mahalla, jamoa, jamiyatda tarbiyalash mazmuni. Odob va xulq tarbiyasi va uning bosqichlari.

102. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 5-9-sinflarida “Tarbiya” fani mazmuni.

103. O‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari.

104. O‘smirlar shaxsini rivojlantirishda “Tarbiya” fani.

105. O‘quvchilarda mas’uliyatlilik, tadbirkorlik, qat’iyatlilik va mehribonlik kabi sifatlarni tarbiyalash tizimi.

106. O‘quvchilarga sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish masalalari.

107. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 10-11-sinflarida “Tarbiya” fani mazmuni.

108. O‘quvchilarda Vatan oldidagi mas’uliyat va burch tuyg‘usini tarbiyalashning dolzarbligi.

109. Mehnat tarbiyasi va o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda “Tarbiya” fanining imkoniyatlari.

110. “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida.

111. Professional ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.
112. Professional ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiya.
113. "Tarbiya" fanini o'qitishning an'anaviy va noan'anaviy shakllari va ular haqida ma'lumot.
114. Tarbiya fanini o'qitishning asosiy va yordamchi shakllari.
115. "Tarbiya" fanini o'qitishning didatik vositalari.
116. "Tarbiya" fanini o'qitishda telepedagogikaning o'rni.
117. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan "Tarbiya" fanini o'qitishda foydalanish yo'llari.
118. "Tarbiya" fanini o'qitishda teatr pedagogikasi elementlaridan foydalanish.
119. "Tarbiya" fanida tarbiya texnologiyasi va tarbiya san'atining ifodalanishi.
120. Ijtimoiy-emotsional ta'lim (SEL)ning nazariy asoslari va asosiy kompetensiyalari.
121. Xalqaro SEL modellarini milliy tarbiya qadriyatlariga moslashtirish mezonlari.
122. Ijtimoiy-emotsional ta'limni dars, sinfdan tashqari faoliyat va maktabning tarbiyaviy muhitiga tizimli integratsiyalash metodikasi.
123. O'quvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini diagnostika qilish va rivojlanish dinamikasini baholash.
124. Xavfsiz, inklyuziv va zo'ravonlikdan xoli tarbiyaviy muhitni yaratishning pedagogik shart-sharoitlari.
125. "Tarbiya" fanini o'qitishda raqamli pedagogika va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari va etik cheklovlari.
126. Kompetensiyaviy yondashuv asosida "Tarbiya" fani bo'yicha o'quv natijalarini loyihalash va mezonli baholash.
127. Ta'lim va tarbiya metodikasi bo'yicha miqdoriy, sifat va aralash tadqiqot dizaynlarini tanlash hamda asoslash.
128. Pedagogik tajriba-sinov natijalarining validligi, ishonchliligi va statistik tahlili.
129. Akademik yozuv, tadqiqot etikasi, mualliflik huquqi va akademik halollik talablari.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017- yil, 6-son, 70-modda.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" to'g'risidagi PF-5712-sonli Farmonini
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-iyundagi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" PQ-290-son Qarori
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarori
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son Qarorining mazmun, mohiyati.
14. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi O'RQ-901-son "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ–232-son “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF–51-son “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF–73-son “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF–76-son “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-iyuldagi 423-son “Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-dekabrdagi PF–256-son “2026–2030-yillarga mo‘ljallangan Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-yanvardagi 34-son “Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PF–19-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–22-son ““Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni.

26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF–58-son “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi PF–98-son “Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni.

28. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

29. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga

bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.

30. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: “O‘zbekiston”, 2021.

31. Falsafa qomusiy lug‘at. – T.: Sharq, 2004.

32. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. - T.: O‘qituvchi 1993.

33. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.: Xalq merosi nashriyoti. 1993.

34. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-tom. -T.: Fan,1998.

35. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. O‘n besh tomlik. 13-tom. -T.: Adabiyot va san‘at, 1996.

36. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika (darslik). – T., “Sahhof”, 2023, 416 bet.

37. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. /Odob durdonalari. -T.: O‘zbekiston, 1990.

38. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-jome’ as-saxix. -T.: O‘zbekiston, 1991.

39. Xoshimov K., S.Nishonova. Pedagogika tarixi. II- qism. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. T., 2005.

40. Kaykovus. Qobusnoma. T.: “Meros”, 1992.

41. Qur’oni Karim. -T.: Cho‘lpon, 1993.

42. Montessori Mariya. Vpityvayushiy razum rebenka. — SPb.: Blagotvoritelnyy fond «VOLONTERЫ», 2009. — 320 s.

43. Pedagogika ensiklopediya. I jild / tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015, 320-b.

44. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa.- Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015, 368 b.

45. Pedagogika: ensiklopediya. III jild. jamoa // Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

46. Safarova R.G, Djurayev R.X. O‘quvchi-yoshlarni “ommaviy madaniyat” hurujlaridan himoya qilishning nazariy-metodologik asoslari. T.: - Tafakkur qanoti. 2016 – 400 b.

47. Safarova R.G, Malikova D.M. “Ixtisoslashgan maktablar va sinflarda ta’lim jarayonini tashkil etish imkoniyatlari” uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2022.

48. Safarova R.G., Masharipova N.R., Rustamov N.Ch. Milliy tarbiyamiz xazinasidan durdonalar. – T.: Science and Innovation, 2024. – 84 b.

49. Tojiboyeva X.M. Gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni shakllantirishning pedagogik strategiyalari: pedagogika fanlari doktori diss. T.: TDPU, 2022-yil. 222 bet.

50. Hasanboyeva O., Hasanboyev J.,Hamidov H. Pedagogika tarixi. –T.: G‘ofur G‘ulom. 2005.

51. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (so‘zboshi muallifi B.Tuhliev) –T.: Yulduzcha, 1990.

52. Xodjayev B. va b. Tarbiya fanini o'qitish texnologiyalari. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 168 b.
53. To'xliyev M. va b. Tarbiya kitobi. – T.: Yurist – mediya markazi, 2017. – 376 b.
54. Ishmuxamedov R. va b. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2010. – 141 b.
55. Quronov M. Milliy tarbiya. – T.: Ma'naviyat.
56. Qodirov V. Komil inson tarbiyasi. – T.: Mehnat, 2001.

Dasturning axborot-uslubiy ta'minoti:

1. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
2. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali.
3. www.gov.uz/uzedu – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi.
4. www.gov.uz/edu – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.
5. www.qoriniyoziytpmi.uz – Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.
6. www.ziynet.uz – Ziyonet ta'lim portali.
7. www.oak.uz – ilmiy darajalar va attestatsiya masalalari bo'yicha rasmiy axborot.
8. www.academy.uz – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.